

TA'LIMNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA INNOVATSION JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
, O'quv-uslubiy boshqarmasi, ta'lim jarayonini tashkil etish uslubchisi*

Xakimov Shaxzod Mamayusufovich

shakhzod.khakimov.89@mail.ru

tel: +998949100062

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining imkoniyatlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, oliy ta'lim muassasalari ta'lim sifati va samaradorligini oshirish kabi yo'nalishlar belgilanib, bu borada oliy ta'lim muassasasi pedagoglarini kreativligini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Respublikadagi shiddatli o'zgarishlar ta'lim tizimiga ham jahon miqyosida keng yo'l ochib bermoqda, jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, global telekommunikatsion texnologiyalarning takomillashib borishi elektron ta'lim muhitida insonni ishga bo'lgan munosabatini kreativ yondashuvini talab etmoqda. Dunyo miqyosida pedagog kadrlarning ijodiy salohiyati, akmeologik kompetentligi va kreativligini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturlari orqali o'qitishning an'anaviy va zamonaviy metodlaridan kompleks foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning intellektual resurslarini yaratish dolzarb hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyoji pedagogning ijodiy fikrlashi va kreativligiga bog'liq bo'lib, buni har bir pedagog innovatsion ta'lim texnologiyalari yordamida amalga oshiradi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridan G.Altshuller, T.Bag'yisheva, Yu.Volkova, Dj.Gilford, Yu.Jigalova va boshqa olimlar kreativlikni shakllan-

tirishning ta'lim muhitiga ta'siri bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borganlar. A.I.Ostroumov va O.F.Ostroumovlarning tadqiqot ishlarida kreativ o'qitish-o'quv jarayonining sub'ektlari tomonidan kreativlik hususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan yangi kreativ mahsulotning yaratilishidir deb ta'riflaganlar.

Ayniqsa, oliy ta'lim muassasasi talabalarini intellektual ijodkorligini rivojlantirish bilan birga ularning pedagogik faoliyatini kreativ olib borishda dizayn-fikrlash texnologiyasidan foydalanish ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'limni samaradorligini oshirish, shaxsni ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarni mustaqil bilim olishini ta'minlash uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rne juda katta. Har tomonlama yetuk inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining o'ziga xos ahamiyat kasb etayotganligini inobatga olgan holda ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish ijtimoiy ehtiyoj ekanligi tobora ayon bo'lib bormoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy maqsadi yosh avlodda yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va siyosiy faollik, mustaqillik, erkin fikr yuritish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Bu maqsad o'z navbatida, tahsil oluvchilarning faolligini oshirishni talab qiladi.

Ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning pedagogik faoliyati quyidagi yo'nalishlarda tashkil etilishi ularda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish imkonini beradi:

- ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlash malakalarini aniqlash mexanizmlarini va modulini ishlab chiqish;
- har bir ta'lim oluvchining innovatsion texnologiyalar haqidagi ma'lumotlarga to'liq egaliklarini aniqlash;
- guruhlarda turli treninglar, forumlar, debatlarini uyushtirish;
- nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar samaradorligini ob'ektiv baholash tizimini yaratish;

-ta'lim oluvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning mazmuni, metodlari, shakl va vositalari aniqlash;

- muassasa, oila va ijtimoiy tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va shu asosida ularning kasbiy malakalarini shakllantirish chora-tadbirlarini belgilash.

-ta'lim oluvchilarda pedagogik texnologiyalardan ijodiy foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy-texnologik asoslarini ishlab chiqish

- ta'lim oluvchilarning malakaviy amaliyotlarini samarali tashkil etish, kuzatish, egallangan nazariy bilimlardan ijodiy foydalanish ko'nikmasini shakllantirish va amaliyot davomidagi mavjud qiyinchiliklar, to'siqlar, muammolar ijobiy hal etish yo'llarini belgilash.

Shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy ta'limda yaxshi samara berib kelayotgan texnologiyalaridan biri muammoli o'qitish texnologiyasi hisoblanadi.

Muammoli o'qitish—o'quv jarayonida o'qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil tarzda yechimni topishni nazarda tutadi, buning natijasida bilim va ko'nikmalarni ijodiy o'zlashtirish va fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishi amalga oshadi

Muammoli vaziyat va o'quv muammosi muammoli o'qitishning asosiy tushunchalari hisoblanadi. O'quv muammosi o'zlashtirish jarayonining mantiqiy-psixologik ziddiyatligining aksi sifatida tushunilib, aqliy qidiruvining yo'nalishini belgilaydi, noma'lumning mohiyatini o'rganishga qiziqish uyg'otadi va yangi tushuncha yoki yangi usulni o'zlashtirishga olib keladi.

O'quv muammosining ikki asosiy funksiyasi mavjud:

1. Aqliy qidiruv yo'nalishini, ya'ni talabaning muammo yechimini topish faoliyatini aniqlash.

2. Talabalarining yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha bilish qobiliyatlarini, qiziqishlarini shakllantirish.

Talabalar faolligining oshishi o'quv-ishlab chiqarish faoliyatiga muammoli vaziyatlarni kiritilishi va ularni idrok ettirilishidan boshlanadi. Muammoli

vaziyatning idrok qilinishi dastlab bilishga oid, soʻngra kasbiy qiziqishlarning shakllanishiga olib keladi. Talaba muammoli vaziyatni hal etishga jalb qilingandan soʻng, unda kasbga oid qiziqishlar ustuvor ahamiyatga ega boʻlib qoladi. Talabalarda nafaqat bilishga oid, balki kasbga oid qiziqishlar ham paydo boʻladi, bular esa maʼlum bir darajada qoʻyilgan muammoni hal etishga yordam beradi. Muammoli vaziyatni muvaffaqiyatli hal etishi uchun oʻqituvchi talabalar oʻzlashtirgan, ularga maʼlum boʻlgan bilimlariga tayanishi kerak. Shundagina, ularda oʻz faoliyatidan mamnun boʻlish sezgisi va ijobiy hissiyotlar vujudga keladi va takrorlanib turadi. Talabalarda bunday kayfiyatning barqarorlanishi, ularda oʻziga ishonch va yangi muammoli vaziyatlarni hal etishga intilish hissiyotlarni shakllantiradi. Ilmiy tadqiqotlarda muammoli vaziyat yaratish– bilishga intilish ehtiyojini paydo qilishning asosiy shartlaridan biri deb qaraladi. Chunki, u talabalarga dars mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Innovatsion faoliyatning funksiyalari: kasbiy faoliyatning ongli tahlili; meʼyorlarga nisbatan tanqidiy yondoshuv; kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik; dunyoga nisbatan ijodiy yaratuvchilik munosabatida boʻlish; oʻz imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish, oʻz turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Demak, oʻqituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targʻibotchisi sifatida namoyon boʻladi. Hozirgi jamiyat, madaniyat va taʼlim taraqqiyoti sharoitida oʻqituvchi innovatsiya faoliyatiga boʻlgan zaruriyat quyidagi omillar bilan belgilanadi: ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish taʼlim tizimi, metodologiya va oʻquv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda oʻqituvchining innovatsion faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, oʻzlashtirish va foydalanishdan iborat boʻladi; taʼlim mazmunini insonparvarlashtirish doimo oʻqitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini amaliyotga joriy etishni taqozo qiladi; pedagogik yangilikni oʻzlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan oʻqituvchining munosabati xarakteri oʻzgarishi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, samaradorlik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish ta'lim tizimidagi o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim. O'qituvchilar o'zlari o'qitayotgan talabalarining ruhiyatlariga mos ravishda muloqotda bo'la olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va o'quv-tarbiya jarayonida qo'llay olishi kerak.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana

shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatgan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O'qituvchi va o'quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlari, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi-talabaga bog'liq.

O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogga va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruxxati

1. Farberman B.A. Ilgor pedagogik texnologiyalar. - T: «Fan», 2000. - 130 b.
2. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. O'quv qo'llanma. - T: 2001.
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie tekhnologii i pedagogicheskoe masterstvo. - Tashkent: Moliya, 2002.
4. Olimov Qahramon Tanzilovich, Sayfullaeva Dilafruz Ahmedovna, Himmataliev Dustnazar Omonovich, Ashurova Sanobar Yuldashevna, Gaffarov Feruz Hasanovich. Teaching Special Subjects for Students with Disabilities in Preparation for the Profession by Using Innovative Educational Technologies.